MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	Fizika fanini o'qitishda o'quvchilarning epistemik faolligini rivojlantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi.....	1978
	<b>Madumarov Shodonbek Az'amjonovich</b>	
	Chet tilini o'qitishda dars rejalashtirish modellarining qiyosiy tahlili.....	1982
	<b>Mahkamova Dilshoda Shuhrat qizi</b>	
	Yoshlar o'rtasida gemblinning psixologik omillari va oqibatlarini.....	1986
	<b>Melibayeva Ro'zaxon Nasirovna</b>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarda og'zaki muloqot madaniyatini rivojlantirishda ertakterapiyaning ahamiyati.....	1990
	<b>Murodova Farangis G'anisherovna</b>	
	Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integratsiyalashgan mashg'ulotlar jarayonida bolalarning kommunikativ nutqlarini rivojlantirishning asosiy tamoyillari.....	1994
	<b>Muxtorova Moxiraxon Ma'rufjon qizi</b>	
	Bo'lajak tarix o'qituvchilarini muzey pedagogikasi vositasi orqali tarixiy tafakkurini rivojlantirishning modeli.....	1997
	<b>Niyozov Javlonbek Jaxongir o'g'li</b>	
	Ingliz tilini o'rgatishda interogativ vositalarning "MYTBT" moduli orqali ifodalanishi.....	2003
	<b>Normamatova Dilfuza Turdikulovna</b>	
	Biologiya darslarida ekologik ekskursiyalarni tashkil etishning amaldagi holati.....	2008
	<b>Quldosheva Dilso'z Sunnatovna</b>	
	Maktabgacha 6–7 yosh bolalarda jismoniy rivojlantirish va madaniy-gigiyenik ko'nikmalarni shakllantirish.....	2011
	<b>Romanova Lola Karimbayevna</b>	
	Maktabgacha yoshdagi bolalarni mantiqiy fikrlashga o'rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish.....	2014
	<b>Rustamova Gulmira Yoryigit qizi</b>	
	Ikkinchi tilni o'rganishda "Chaynovord" metodini qo'llashning afzalliklari va kamchiliklari.....	2018
	<b>Sadinov Oybek Ziyot o'g'li</b>	
	Innovatsion ta'lim texnologiyalari orqali pedagoglarning kreativligini rivojlantirish.....	2021
	<b>Saydullayeva Gulasal Umidjon qizi</b>	
	Ish beruvchilar bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan loyiha topshiriqlari asosida ESP kurslarini amaliyotga yo'naltirish va talabalarning kasbiy ingliz tili kompetensiyalarini shakllantirish.....	2024
	<b>Shermuxevedova Dilnozaxon Raximjanovna</b>	
	Raqamli ta'lim muhitida o'quv resurslarini yaratishning raqamli-didaktik mazmunini rivojlantirish metodikasi.....	2028
	<b>Shirinov Feruzjon Shuxratovich</b>	
	Og'ir atletikachilarning boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida portlovchi kuchni rivojlantirish samaradorligi.....	2031
	<b>Tojimatov Oybekjon Dilmurodjon o'g'li</b>	
	Maktabgacha ta'lim tashkilotida STEAM xalqaro dasturini qo'llash metodikasi.....	2034
	<b>Tojiyeva Iroda Sadatovna, Shoimov Anvar Mamarizayevich</b>	
	Interfaol metodlardan foydalanib matematika darslari samaradorligini oshirish.....	2039
	<b>Toshboyeva Saidaxon Rahmonberdiyevna, Nishonova Shahnozaxon Ro'zali qizi</b>	
	Maktabda fizika darslarida ekologik mazmundagi masalalardan foydalanish.....	2043
	<b>Tursunov Alisher Isoqovich, Erniyazova Shaxnoza Xurram qizi</b>	
	Taniqli kimyogar olimlarning ijodiy faoliyatini o'rgatish metodikasi.....	2046
	<b>Ubaydullayeva Navruza Ne'matovna</b>	
	Muhandislik kompetensiyalariga ega zamonaviy texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlash.....	2050
	<b>Umarov Abdurasul Abduraximovich</b>	
	Talabalarda mediasavodxonlik fani asosida konseptual tahlil kompetensiyalarini takomillashtirish metodikasi.....	2058
	<b>Umarov Xusanboy Rustamovich</b>	
	Pedagogical-Psychological Features of Forming Research Competences.....	2062
	<b>Usmanova Nargiza Kudiratullayevna</b>	
	Qasddan badanga yengil shikast yetkazish jinoyatining ijtimoiy salbiy oqibatlarini (yuridik va ijtimoiy-falsafiy tahlil).....	2065
	<b>Xaidarov Rahmatullo Ergashevich, Amirxo'jayev Shukurjon Qurbanovich</b>	
	Talabalar sog'lig'iga ta'sir qiluvchi zamonaviy raqamli texnologiyalar va ularni boshqarish tizimlari.....	2069
	<b>Xaqiqatbekov Zafarbek Shavkatbek o'g'li</b>	
	Tez tibbiy yordam fanida stressni boshqarish ko'nikmalarini rivojlantirishning integrativ-metodik modeli.....	2073
	<b>Xasanov Kamoliddin Ulug'bek o'g'li</b>	
	Talabalik davrida hayotiy qadriyatlar shakllanishining psixologik xususiyatlari.....	2080
	<b>Xayrullayeva Zebiniso Toxirovna</b>	



Informatsion-analitik kompetentlik iborasining pedagogika va falsafa fanlari misolida konseptual tadqiqi..	2085
<b>Xolmatova Elnura Sherali qizi</b>	
Emotsional intellekt rivojlanishida ijtimoiy muhitning psixologik ahamiyati .....	2088
<b>Xudoyqulova Shoira Husanovna</b>	
Boshlang'ich sinflarda interfaol metodlar asosida dars samaradorligini oshirish metodikasi .....	2091
<b>Xurramova Mehriniso Shamsiddin qizi</b>	
The Adaptation Characteristics of the Movement Analyzer are Influenced by Physical Exercise .....	2094
<b>Yoldasheva Roila Jumaevna, Fayziyeva Kibriyo Tuvlanovna</b>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda faol fikrlash ko'nikmasini rivojlantirish .....	2098
<b>Yoldasheva Dilshoda To'lqinovna</b>	
Geometrik isbotlashlarni o'rgatishda dasturiy vositalardan foydalanishning innovatsion yondashuvlari .....	2102
<b>Yunusova Dilfuza Ismailovna, Toxirova Malika Muzaffar qizi</b>	
ESP (maxsus maqsadlar uchun ingliz tili) dasturlarida vazifaga yo'naltirilgan biznes kommunikatsiyasi orqali oliy ta'limni mehnat bozori talablariga moslashtirish .....	2106
<b>Yunusova Feruzaxon Xodjiakbarovna</b>	
Genderga oid qarashlarning pedagogik bilimlar strukturasidagi ahamiyati .....	2109
<b>Yunusova Xolidaxon To'lqinjon qizi</b>	
Integrativ yondashuv orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarida kritik fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning samarali didaktik mexanizmlari .....	2113
<b>Zokirova Ma'suma Qahramonjon qizi</b>	
Ta'lim klasterlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish .....	2116
<b>Badalova Maqsuda Umarovna</b>	
Malakali kurashchilarda gavda-bel va qo'l-panja mushaklarining absolyut maksimal kuchini bir o'my davomida o'sish sur'ati .....	2119
<b>Mirzanov Sherzod Sirliboyevich</b>	
Технологии формирования коммуникативных навыков у детей раннего возраста .....	2123
<b>Назарова Эльвира Наримановна</b>	
Роль акмеологического подхода в оценке качества профессиональной подготовки будущих учителей .....	2127
<b>Шафига Тахирова</b>	
Этимологические справки к словарным словам школьных учебников по русскому языку по традиционной системе обучения .....	2131
<b>Эшанкулов Хамракул Маматкулович</b>	



# MATEMATIKA DARSLARIDA O'YINLI TEXNOLOGIYALAR ORQALI O'QUVCHILARNING MUSTAQIL FIKRLASHINI SHAKLLANTIRISH

Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li

Andijon davlat universiteti kompyuter injiniringi kafedrası  
v.b. dotsenti, p.f.f.d, (PhD)

Badridinov Nusratbek Xusniddin o'g'li

Andijon davlat universiteti talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada matematika ta'limida o'yinli texnologiyalardan foydalanish orqali o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish masalasi yoritilgan. Piaget va Vygotskiy nazariyalari asosida mustaqil fikrlash jarayonining nazariy asoslari tahlil qilingan. OECD tadqiqotlari asosida zamonaviy ta'limdagi o'yinli yondashuvlarning afzalliklari ko'rib chiqilgan. Shuningdek, matematika darslarida mantiqiy o'yinlar, raqamli platformalar va jamoaviy topshiriqlardan foydalanish orqali o'quvchilarning bilim olish motivatsiyasi hamda ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Maqola yakunida O'zbekiston ta'lim tizimi uchun xulosa va ilmiy asoslangan tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil fikrlash, o'yinli texnologiyalar, matematika ta'limi, mantiqiy o'yinlar, OECD, Piaget, Vygotskiy.

**Abstract:** This article explores the development of students' independent thinking through the use of game-based technologies in mathematics education. Based on the theories of Piaget and Vygotsky, the theoretical foundations of independent thinking are analyzed. The study also examines the advantages of game-based learning approaches according to OECD research. Furthermore, the paper highlights the potential of logical games, digital platforms, and group activities in mathematics lessons to enhance students' learning motivation and creative problem-solving skills. The article concludes with evidence-based recommendations for improving the Uzbek educational system.

**Key words:** independent thinking, game-based technologies, mathematics education, logical games, OECD, Piaget, Vygotsky.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается формирование самостоятельного мышления у учащихся посредством применения игровых технологий в процессе обучения математике. На основе теорий Пиаже и Выготского проанализированы теоретические основы развития самостоятельного мышления. На материалах исследований OECD изучены преимущества современных игровых подходов в образовании. Кроме того, показаны возможности повышения учебной мотивации и развития творческого мышления учащихся через использование логических игр, цифровых платформ и коллективных заданий на уроках математики. В заключение приведены выводы и научно обоснованные рекомендации для системы образования Узбекистана.

**Ключевые слова:** самостоятельное мышление, игровые технологии, математическое образование, логические игры, OECD, Пиаже, Выготский.

## KIRISH

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, matematika darslarida o'quvchilarni faollikka, ijodiy izlanishga va mantiqiy xulosalar chiqarishga yo'naltirish zarur. An'anaviy o'qitish metodlari ko'pincha bilimlarni tayyor shaklda berishga qaratilgan bo'lib, bu esa o'quvchilarda mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yetarlicha shakllantira olmaydi. Shu sababli, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o'yinli texnologiyalardan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Piaget va Vygotskiy kabi mashhur psixolog-olimlarning ilmiy qarashlarida ta'kidlanganidek, bolalarning fikrlash qobiliyati faoliyat jarayonida, ayniqsa, o'yin orqali tezroq shakllanadi. O'yinli texnologiyalar o'quvchini faollikka chorlab, uning mustaqil qaror qabul qilish va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. OECD (Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti) tadqiqotlarida ham zamonaviy o'yin elementlarini dars jarayoniga qo'shish o'quvchilarning ta'limiy motivatsiyasini oshirishda samarali vosita sifatida ko'rsatilgan.

Tadqiqotning maqsadi shundan iborat – “Matematika darslarida o‘yinli texnologiyalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish imkoniyatlarini o‘rganish”. [1]

### MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Matematika ta'limida o‘yinli texnologiyalardan foydalanish o‘quvchilarning kognitiv rivojlanishiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini bir qator ilmiy manbalar ta’kidlaydi. Piagetning “The Child’s Conception of Number” asarida raqamlar va son tushunchasini o‘zlashtirish jarayoni faoliyat orqali shakllanishi, ayniqsa boshlang‘ich yoshdagi o‘quvchilar uchun o‘yin va amaliy tajriba asosiy mexanizm ekani ko‘rsatib berilgan. Vygotskiy ham o‘zining “Mind in Society” nomli fundamental tadqiqotida o‘yin faoliyatini bolaning “yaqin rivojlanish zonasi”ni kengaytiruvchi intellektual omil deb baholaydi. Ushbu nazariy asoslar matematika darslarida o‘yinli topshiriqlarni qo‘llash mustaqil fikrlash, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash va muammoni hal qilish jarayonlarini tezlashtirishini ilmiy jihatdan tasdiqlaydi.

O‘zbekiston olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ham o‘yinli yondashuvlarning amaliy samarasiga e’tibor qaratilgan. Esentaevna K. J. matematika o‘qitish jarayonida didaktik o‘yinlardan foydalanish o‘quvchilarning faolligini oshirishi, darslik materiallarini ongli o‘zlashtirishni kuchaytirishini ta’kidlaydi.

Djanpeisova G. E. va Xodjimuratova B. N. esa matematik tasavvurlarni shakllantirishda vizual, manipulyativ va o‘yinli resurslardan foydalanish tafakkur, tahlil qilish va solishtirish ko‘nikmalarini boyitishini ilmiy asosda ko‘rsatadi.

Shuningdek, Raxmonovna R. M. algebraik ifodalarni o‘rgatishda interaktiv va o‘yinli metodlardan foydalanish o‘quvchining mustaqil izlanish va soddalashtirish strategiyalarini tezroq egallashiga yordam berishini ta’kidlaydi.

Xalqaro ta’lim tizimlarida o‘tkazilgan tadqiqotlar matematika darslarida o‘yinli metodlarning samaradorligini yanada chuqurroq yoritadi. OECD tomonidan e’lon qilingan “Education at a Glance 2023” hisobotida o‘yin asosidagi o‘qitish o‘quvchilarning o‘quv motivatsiyasi, hamkorlikda ishlash ko‘nikmasi va yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini kuchaytirishi qayd etiladi. Xususan, Finlandiya va Singapur kabi ilg‘or ta’lim tizimlarida matematika fanida o‘yinli faoliyatlarni qo‘llash o‘quvchilarning mantiqiy fikrlash ko‘rsatkichlarini sezilarli oshirgani amaliy natijalar bilan tasdiqlangan. Ushbu ilmiy manbalar o‘yinli texnologiyalar matematika ta’limida mustaqil fikrlashni rivojlantirishning ishonchli metodlaridan biri ekanini ko‘rsatadi.

### TADDIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi matematika darslarida o‘yinli texnologiyalar orqali o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirish jarayonini empirik asosda o‘rganishga qaratildi. Ma’lumotlar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari ishtirokida tashkil etilgan dars kuzatuvlari, o‘qituvchilar bilan yarim tuzilgan intervyular va sinov-solishtirma topshiriqlar yordamida yig‘ildi. Kuzatuvlar davomida o‘quvchilarning o‘yinli topshiriqlarga javob reaksiyalari, izlanish darajasi, mantiqiy bog‘lanishlarni topish qobiliyati va mustaqil qaror qabul qilish ko‘nikmalari qayd etildi. Intervyular orqali o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash jarayonida o‘qituvchilarning tajribasi, muammolari va samaradorlikka doir fikrlari o‘rganildi. Olingan ma’lumotlar mazmuniy tahlil, taqqoslash, ballik baholash va mantiqiy umumlashtirish usullari yordamida qayta ishlanib, o‘yinli texnologiyalarning mustaqil fikrlashga ta’siri aniqlashtirildi. Shuningdek, kuzatuv natijalari asosida o‘quvchilarning mustaqil fikrlash ko‘rsatkichlari o‘yinli va an’anaviy darslar kesimida solishtirildi va o‘yin asosidagi topshiriqlarning kognitiv faollikni oshirishdagi ustun jihatlari tahliliy tarzda asoslab berildi.

### TAHLIL VA NATIJALAR

Matematika darslarida o‘yinli texnologiyalarni qo‘llash o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda kuchli omil sifatida namoyon bo‘layotgani yaqqol ko‘rinmoqda. Ta’lim jarayonida o‘quvchi faolligi, tashabbus ko‘rsatishi, mantiqiy xulosalar chiqarishi va masalalarga noodatiy yondashishi uchun qulay sharoit yaratish bugungi zamonaviy pedagogikaning asosiy talablaridan biridir. An’anaviy metodlar ko‘proq tayyor bilimni yetkazishga qaratilgani sababli o‘quvchilarda mustaqil fikrlash odatda cheklangan bo‘ladi. O‘yinli texnologiyalar esa buni tubdan o‘zgartirib, o‘quvchini jarayon markaziga olib chiqadi. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko‘ra, bola bilimni tayyor shaklda emas, balki faoliyat orqali o‘zlashtiradi. Aynan matematika kabi abstrakt mazmundagi fanlarda o‘yinli topshiriqlar orqali izlanish, sinab ko‘rish, taqqoslash, xulosa chiqarish jarayonlari o‘quvchi tafakkurini jadal shakllantiradi. Vygotskiyning yaqin rivojlanish zonasi konsepsiyasi esa o‘yin o‘quvchini o‘z imkoniyatidan yuqori intellektual bosqichga olib chiqishini ko‘rsatadi. Demak, pedagog o‘yin orqali murakkab bilimlarni soddaga, tushunarli va faol shaklda o‘quvchining ongiga singdirishi mumkin.

OECD tadqiqotlari o‘yin asosidagi ta’limning motivatsiyani oshirishi, muloqot ko‘nikmalarini rivojlantirishi va o‘quvchilarda yuqori darajadagi tafakkur jarayonlarini shakllantirishini ko‘rsatadi. Xususan, Finlandiya, Singapur



kabi ilg'or ta'lim tizimlarida matematika fanini o'rgatishda o'yinlar o'quv jarayonining ajralmas qismi sifatida joriy etilgan. Ilmiy manbalarda keltirilishicha, o'yinli topshiriqlarni muntazam qo'llaganda o'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'rsatkichlari 25–30 foizgacha oshishi mumkin. Bu raqamlar o'yin elementlari oddiy ko'ngilochar vosita emas, balki pedagogik samaradorlikni oshiruvchi kuchli texnologiya ekanini tasdiqlaydi. Boshlang'ich ta'limda o'qitishga alohida e'tibor qaratilib, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini zamon talablari asosida malakali kadr etib tayyorlash bugungi kunning kechiktirib bo'lmas muammolaridan biri sanaladi.

Shuni hisobga olgan holda, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydi: “Maktab o'quv dasturlarini ilg'or xorijiy tajriba asosida takomillashtirish, o'quv yuklamalari va fanlarni qayta ko'rib chiqish, ularni xalqaro standartlarga moslashtirish, darslik va adabiyotlar sifatini oshirish zarur. Mamlakatimiz uchun ilm-fan sohasidagi ustuvor yo'nalishlarni aniq belgilab olishimiz kerak. Hech bir davlat ilm-fanning barcha sohalarini bir yo'la taraqqiy ettira olmaydi. Shuning uchun biz ham har yili ilm-fanning bir nechta ustuvor yo'nalishini rivojlantirish tarafdorimiz. Ma'lumki, matematika fani – abstrakt fan. Uning mazmuni boshidan oxirigacha inson tasavvurining va mantiqiy tafakkurining mahsulidan iborat. Fanning bunday abstrakt tuzilishi, o'zini-o'zi boyitib borishi, ya'ni yangidan-yangi matematik tushunchalar va ularning xossalarni ma'lum xossalardan hosil qila olish imkoniyati qadimdan insonning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qilib kelgan. Hatto matematik masalalarni yechish musobaqalari o'tmishda inson aqlini peshlash vositasi bo'lgan. Shundan kelib chiqadigan bo'lsak, matematika fanining eng asosiy vazifasi aynan o'quvchilarni o'ylashga, to'g'ri, mantiqiy fikrlashga va mushohada yuritishga o'rgatishdan iborat ekanligi oydinlashadi. Hech qaysi fan matematika o'quvchilarni o'ylashga va fikrlashga majbur qila olmaydi. Matematika darslarida turli tuman masala, muammo va jumboqlarni yechish orqali o'quvchilar to'g'ri fikr yuritish, mantiqiy fikrlashni o'rganadilar.”

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

1. Mustaqil fikrlashning nazariy asoslarini tahlil qilish;
2. Matematika darslarida o'yinli texnologiyalarni qo'llash metodlarini o'rganish;
3. O'yinli texnologiyalarning o'quvchilar fikrlash faoliyatiga ta'sirini aniqlash;
4. O'qituvchilar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Mustaqil fikrlash tushunchasi nima deydi bo'lsak, avvalo bu o'quvchining o'z bilim va tajribasiga tayyانب, mavjud vaziyatni tahlil qilish, muammoga bir nechta yechim topa olish va xulosa chiqarish qobiliyatidir. Ta'lim jarayonida mustaqil fikrlash o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularda bilimni ijodiy o'zlashtirish hamda amaliyotda qo'llash imkonini yaratadi. Ayniqsa, matematika fanida o'quvchining mustaqil fikrlashi masalalarni yechishda noodatiy yo'llar topishi, turli yechimlarni taqqoslashi va eng samaralisini tanlay olishida namoyon bo'ladi.

Piaget nazariyasida fikrlash jarayoni ketadi. J. Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasiga ko'ra, bola fikrlashi bosqichma-bosqich rivojlanadi. Boshlang'ich sinf davri “konkret amaliy operatsiyalar bosqichi”ga to'g'ri keladi. Bu davrda o'quvchilar sodda mantiqiy xulosalar chiqarish, obyektlarni solishtirish, taqqoslash, guruhlash va sabab-oqibat bog'lanishlarini anglashga qodir bo'ladi. Piaget fikricha, o'quvchi bilimni tayyor holda emas, balki faoliyat jarayonida, mustaqil izlanish orqali o'zlashtiradi. Shuning uchun matematika darslarida turli o'yinli topshiriqlar va muammoli vaziyatlar tashkil etish orqali o'quvchilar mustaqil fikrlashga undaladi. <sup>[2]</sup>

Vygotskiy nazariyasida fikrlash jarayoni shunday. L. Vygotskiy “yaqin rivojlanish zonasini” tushunchasini ilgari surib, o'quvchining fikrlash jarayonida kattalar va tengdoshlar bilan muloqotning ahamiyatini ta'kidlagan. Unga ko'ra, o'quvchi murakkab masalani o'qituvchi yoki bilimli hamkor yordami bilan hal qilish orqali asta-sekin mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi. Vygotskiy nazariyasida til va tafakkur chambarchas bog'liq bo'lib, o'yin faoliyati orqali o'quvchilarda ichki nutq va mantiqiy tafakkur shakllanadi. Shuning uchun matematika darslarida o'yinli texnologiyalarni qo'llash nafaqat bilim olishni, balki o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantiradi. <sup>[3]</sup>

Matematika ta'limida o'yinli texnologiyalardan foydalanish. O'yin texnologiyalarining ta'limdagi o'rni. O'yin faoliyati o'quvchilarning tabiiy ehtiyoji hisoblanadi. Boshlang'ich sinf davrida bola atrof-muhitni o'yin orqali anglaydi, shaxsiy tajribasini boyitadi va muloqot qobiliyatini rivojlantiradi. Shu bois, ta'lim jarayoniga o'yin texnologiyalarini qo'llash nafaqat darsni qiziqarli qiladi, balki o'quvchilarning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, matematika fanida o'yinli metodlardan foydalanish bolalarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish va muammoni hal qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. O'yinli texnologiyalar orqali o'quvchi dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi, bu esa ta'lim samaradorligini sezilarli oshiradi.

OECD tadqiqotlari asosida zamonaviy yondashuvlar shuni ko'rsatadiki, OECD tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda o'yinli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlarini kuchaytirishi alohida ta'kidlangan. Xususan, Finlandiya va Singapur ta'lim tizimida matematika darslarida o'yinli mashg'ulotlar asosiy metodlardan biri sifatida qo'llaniladi. OECD hisobotlariga ko'ra, o'yin asosidagi ta'lim nafaqat bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchining motivatsiyasini kuchaytiradi, muloqot va hamkorlik

ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu jihatdan, O'zbekiston ta'lim tizimida ham matematika darslariga zamonaviy o'yin texnologiyalarini keng tatbiq etish dolzarb hisoblanadi. [4]

Matematikada qo'llaniladigan o'yinli metodlar haqida gapiradigan bo'lsam. Matematika ta'limida o'yinli texnologiyalar turli shakllarda namoyon bo'ladi.

1. **Matematik domino** – bu o'quvchilar sonlar, arifmetik amallar yoki geometrik shakllar asosida domino kartalarini birlashtiradilar. Bu usul mantiqiy bog'lanishlarni topish va xotirani mustahkamlashga yordam beradi.
2. **Topishmoqli masalalar** – masalalar o'yin shaklida berilib, o'quvchilardan noodatij fikrlash talab qilinadi. Masalan: "Menda uchta olma bor, bittasini ukamga berdim, lekin yana uchta qo'shildi. Menda nechta bo'ldi?" kabi vaziyatlar orqali bola mantiqiy izlanishga majbur bo'ladi.
3. **Matematik viktorinalar** – jamoaviy musobaqa ko'rinishida tashkil etilib, o'quvchilarda raqobat va hamkorlikni rivojlantiradi.
4. **Rol o'yinlari** – masalan, "Do'konchi va xaridor" o'yini orqali pul sanash, qo'shish-ayirish amallarini o'rgatish mumkin. Bu o'yin o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlarga moslashtiradi.
5. **Kompyuter va interaktiv o'yinlar** – zamonaviy ta'limda elektron dasturlar va mobil ilovalar orqali matematik mashqlar o'yin shaklida beriladi. Bu usul o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini kuchaytiradi va mustaqil ishlash malakasini rivojlantiradi.

O'zbekiston ta'lim tizimi uchun ham ushbu metodlarning ahamiyati juda katta. Prezident tomonidan aytilganidek, matematika o'quvchini fikrlashga majbur qiladigan fan hisoblanadi. Demak, matematikani faqat qoidalar majmui sifatida emas, balki o'quvchini o'ylashga, solishtirishga, izlanishga undaydigan texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish zarur. O'yinli texnologiyalar aynan shu ehtiyojga javob beradi. Mavjud darslik va metodikalarga o'yinli yondashuvlarni qo'shish o'quv jarayonining sifatini oshirishi, bilimlarni amaliyot bilan bog'lashi, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va ijodkorlik kabi zamonaviy kompetensiyalarni shakllantirishi mumkin.

Adabiyotlar tahlillari shuni ko'rsatadiki, matematik tasavvurlarni shakllantirish mahsulining yuqori darajadagi yangiligi, unga erishish jarayonining o'ziga xosligi va aqliy rivojlanishga sezilarli ta'sir ko'rsatish bilan ifodalanadi. Ayrim mualliflar bolaning turlicha fikrlashlari ularning oldida turgan yangi muammolarni mustaqil yechishga, chuqur bilimlarni tez egallashga, qulay imkoniyatga yengil o'tishga undaydi, deb hisoblaydilar. [5]

Mavjud ilmiy manbalar shuni ko'rsatadiki, o'yinli texnologiyalarni muntazam va maqsadli qo'llagan holda matematika darslari nafaqat qiziqarli, balki ancha samarali bo'ladi. O'quvchilarda o'z fikriga ega bo'lish, yangi yechim topish, mantiqiy bog'lanishlarni anglash ko'nikmalari mustahkamlanadi. O'yin asosidagi topshiriqlar o'quvchida ijobiy raqobat hissini uyg'otadi, jamoada ishlashni o'rgatadi, o'z fikrini himoya qilish va boshqalarning fikrini eshitish madaniyatini shakllantiradi. Natijada, matematika fani murakkab va qiyin fan emas, balki izlanish, topish, kashf qilishga yo'naltirilgan jarayon sifatida qabul qilinadi.

O'rta maktablarda matematika o'qitishning maqsadi quyidagi 3 omil bilan belgilanadi:

1. Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi.
2. Matematika o'qitishning tarbiyaviy maqsadi.
3. Matematika o'qitishning amaliy maqsadi.

Matematika o'qitishning umumta'limiy maqsadi o'z oldiga quyidagi vazifalarni qo'yadi:

- a) o'quvchilarga ma'lum bir dastur asosida matematik bilimlar berish. Bu bilimlar tizimi matematika fani to'g'risida yetarli darajada ma'lumot berish, ularni matematika fanining yuqori bo'limlarini o'rganishga tayyorlashi kerak. Bundan tashqari, dastur asosida o'quvchilar o'qish jarayonida olgan bilimlarini ishonchli ekanligini tekshira olishni o'rganishlari, ya'ni isbotlash va nazorat qilishning asosiy metodlarini egallashlari kerak.
- b) o'quvchilarning og'zaki va yozma matematik bilimlarini tarkib toptirish. Matematikani o'rganish o'quvchilarning o'z ona tillarida xatosiz so'zlash, o'z fikrini aniq, ravshan va lo'nda qilib bayon eta bilish malakalarini o'zlashtirishlariga yordam berishi kerak. Bu degani, o'quvchilarning har bir matematik qoidani o'z ona tillarida to'g'ri gapira olishlariga erishish hamda ularni ana shu qoidaning matematik ifodasini formulalar yordamida to'g'ri yoza olish qobiliyatlarini atroflicha shakllantirish demakdir.
- d) o'quvchilarni matematik qonuniyatlar asosida real haqiqatlarni bilishga o'rgatish. Bu yerda o'quvchilarga real olamda yuz beradigan eng sodda hodisalardan tortib to murakkab hodisalargacha hammasining fazoviy formalari va ular orasidagi miqdoriy munosabatlarni tushunishga imkon beradigan hajmda bilimlar berish ko'zda tutiladi. Bunday bilimlar berish orqali esa o'quvchilarning fazoviy tasavvur qilishlari shakllanadi hamda mantiqiy tafakkur qilishlari yanada rivojlanadi. [6]

Matematika darslarida o'yinli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarni faollashtirishning samarali vositasidir. Masalan, oddiy qo'shish va ayirish amallarini o'rgatishda "Do'konchi va xaridor" o'yini orqali o'quvchi nafaqat



hisob-kitob qiladi, balki real hayotiy vaziyatda qo'llashni ham o'rganadi. Piagetning "bola bilimni faoliyat jarayonida o'zlashtiradi" degan g'oyasi ham aynan shu amaliyotda yaqqol namoyon bo'ladi.

Vygotskiy ta'kidlaganidek, "o'yin – bolaning yaqin rivojlanish zonasi" bo'lib, unda bola o'zidan yuqori intellektual bosqichni sinab ko'radi. Shu sababli, darslarda o'yinli topshiriqlar nafaqat qiziqarli, balki o'quvchining yangi bilimlarni o'zlashtirishida zarur shart hisoblanadi.


#### 1-jadval: O'yin texnologiasining jadval ko'rish

No	O'yin turi	Faoliyat turi	Mustaqil fikrlashni rivojlantirish
1	Mantiqiy o'yin	Raqamlar bilan kombinatsiya	Muammoli vaziyatni hal qilish
2	Geometrik shakllar	Shakllarni qayta yaratish	Yangi yechim topish
3	Jamoaviy topshiriqlar	Guruh bo'lib ishlash	Qaror qabul qilish va hamkorlik

O'quvchilar faoliyati va natijadorligi haqida gapiradigan bo'lsa, OECD tadqiqotlariga ko'ra, o'yin asosidagi ta'lim o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini 25–30% ga oshirishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, o'yin faqat vaqt o'tkazish vositasi emas, balki samarali pedagogik metoddir. Masalan, "Matematik viktorina" dars jarayonida o'quvchilarni jamoaviy ishlashga o'rgatadi, "Matematik domino" esa ular orasida tezkor mantiqiy bog'lanishlarni topish malakasini rivojlantiradi. Amaliy kuzatuvlarda shuni ko'rish mumkinki, o'yinli texnologiyalar qo'llanilgan darslarda:

1. O'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi;
2. Mustaqil fikrlash va noodatiy yechimlar taklif qilish ko'nikmasi rivojlanadi;
3. O'quvchilar o'zaro muloqot va hamkorlikka kirishadilar;
4. Natijada dars samaradorligi sezilarli darajada oshadi.

Bir so'z bilan aytganda, o'yinli texnologiyalar matematikani "qiyin fan" emas, balki "qiziqarli va ijodiy mashg'ulot" sifatida qabul qilishga yordam beradi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, matematika darslarida o'yinli texnologiyalarni qo'llash nafaqat bilimlarni samarali o'zlashtirishga, balki o'quvchilarda mustaqil fikrlash, mantiqiy xulosalar chiqarish va ijodkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. Piaget va Vygotskiy nazariyalari asosida olib borilgan tadqiqotlar ham shuni tasdiqlaydiki, o'yin faoliyati bolaning intellektual rivojlanishida muhim omil hisoblanadi. Xususan, OECD tomonidan o'tkazilgan zamonaviy ta'lim bo'yicha tadqiqotlar ham o'yinli metodlarning o'quvchilar motivatsiyasi va natijadorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Tavsiya sifatida shularni aytishim mumkin.



#### 1-grafik: Matematika darslarida o'yinli metodlarni joriy etish strategiyasi

O'zbekiston ta'lim tizimida o'yinli texnologiyalarni keng tatbiq etish orqali matematika darslarini qiziqarli, interfaol va samarali qilish mumkin. Bu nafaqat o'quvchilarning bilim darajasini oshiradi, balki ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantirib, kelajakda ijodkor va tashabbuskor shaxs bo'lib voyaga yetishlariga yordam beradi.

Integrativ ta'lim metodologiyasi matematik ta'limni yanada samarali va qiziqarli qilishda muhim rol o'ynaydi. Bu yondashuv o'quvchilarga faqat nazariy bilimlarni o'rgatish bilan cheklanmay, ularni turli fanlar o'rtasida bog'lanishlarni o'rganishga undaydi va amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. Matematikani boshqa fanlar bilan integratsiya qilish o'quvchilarga turli masalalarni hal qilishda yangi imkoniyatlar yaratadi va ularning fikrlash, tahlil qilish va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Integrativ ta'lim o'quvchilarga nafaqat bilimlarni kengaytiradi, balki ularga ilmiy metodlarni amaliyotda qo'llashni o'rgatadi. Shu bilan birga, bu metodologiya o'quvchilarda tizimli

fikrlashni rivojlantiradi va ularning umumiy bilimlarini boyitadi. Shuningdek, integrativ ta'lim o'qituvchilarni yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirishga, o'quvchilarga zamonaviy o'quv metodlarini taqdim etishga undaydi. Biroq, ushbu metodni qo'llashda ayrim muammolar ham mavjud, masalan, ta'lim resurslari va o'qituvchilarning malakasi bilan bog'liq qiyinchiliklar. Shu sababli, integrativ ta'limni kengaytirish uchun o'quvchilarni tayyorlash va metodologiyani to'liq joriy etish zarur. <sup>[7]</sup>

Matematika ta'limida qo'llanilayotgan o'yinli metodlarning turlari talaygina bo'lib, ular har biri alohida kognitiv jarayonni faollashtiradi. Masalan, matematik domino mantiqiy bog'lanishlarni anglash va tezkor qaror qabul qilishni kuchaytirsa, topishmoqli masalalar noodatiy fikrlashni talab qiladi. Rol o'yinlari o'quvchini real vaziyatga olib kirib, matematik bilimni amaliy qo'llashga imkon beradi. Jamoaviy viktorinalar esa hamkorlikka asoslangan fikrlashni rivojlantiradi. So'nggi yillarda kompyuter va mobil ilovalar asosidagi interaktiv o'yinlarning kengayib borayotgani o'quvchilarga mustaqil ishlash imkonini yanada oshirmoqda. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, raqamli o'yinlar matematika masalalarini o'zlashtirishda an'anaviy usullarga qaraganda tezroq va samaraliroq natija beradi.

Matematika fanining asosiy bo'limlaridan biri bo'lgan algebra o'z ichiga ko'plab tushunchalarni oladi. Ulardan biri algebraik ifodalar va ular ustida amallar bajarishdir. Algebraik ifodalarni soddalashtirish – bu matematik formulalarni, tenglamalarni va masalalarni hal qilishda eng muhim bosqichlardan biridir. Bu jarayon nafaqat yechimni tezlashtiradi, balki ifoda ustida ishlashda tushunarlilikni oshiradi, matematik fikrlashni chuqurlashtiradi. Soddalashtirishda ishlatiladigan asosiy algebraik qonunlar: kommutativlik, assotsiativlik va distributivlik qonunlari hisoblanadi. Bu qonunlar yordamida algebraik ifodalar qisqartiriladi, umumiy ko'paytuvchilarga ajratiladi yoki kengaytiriladi. Bu metodik yondashuvlar soddalashtirishning nazariy asosini tashkil etadi. Soddalashtirishda quyidagi ketma-ket bosqichlar amalga oshiriladi:

- o'xshash hadlarni topish;
- distributiv qonunni qo'llash;
- ko'paytma va qisqartmalarni bajarish;
- guruhlash va yakuniy shaklga keltirish.

Har bir bosqichda aniq qoidalar asosida yondashiladi. <sup>[8]</sup>

O'yinli texnologiyalar qo'llangan darslarda o'quvchi faolligi tabiiy ravishda oshadi. Bunda o'quvchi o'z fikrini bayon qiladi, muqobil yechimlarni taqqoslaydi, o'z tanlovini asoslaydi. Har bir o'yin jarayoni kichik tadqiqot vazifasini bajaradi. Masalan, "Do'konchi va xaridor" o'yini nafaqat arifmetik amallarni o'rgatadi, balki mantiqiy bog'lanishlar, qaror tezligi, hisob-kitob aniqligi kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Bu jarayonda o'quvchi bilimni tayyor shaklda emas, balki faoliyat orqali egallaydi. Shu orqali mustaqil fikrlash tabiiy yo'l bilan shakllanadi. Bularning barchasi Piaget va Vygotskiy nazariyalarining amaliy tasdig'idir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Umumlashtirib aytganda, matematika darslarida o'yinli texnologiyalardan foydalanish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini shakllantirishda asosiy strategiyalardan biri bo'lishi mumkin. Piaget va Vygotskiy nazariyalari, shuningdek, OECD tadqiqotlari ko'rsatganidek, o'yin bola tafakkurini rivojlantiruvchi tabiiy mexanizm hisoblanadi. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvlarni keng tatbiq etish o'quvchilarning bilimi, tafakkuri va ijodiy salohiyatining o'sishiga kuchli turtki beradi. Matematika darslarida o'yinli texnologiyalarning qo'llanishi kelajak avlodning fikrlaydigan, tahlil qiladigan va yangilik yaratishga qodir shaxs bo'lib shakllanishiga zamin yaratadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Esentaevna K. J. Maktablarda matematika fanini o'qitishning dolzarb masalalari // Yangi O'zbekiston, yangi tadqiqotlar jurnali. – 2024. – T. 1. – № 2. – C. 406–410.
2. Piaget J. The Child's Conception of Number. – London: Routledge, 1997.
3. Vygotsky L. Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1978.
4. OECD. Education at a Glance 2023: OECD Indicators. – Paris: OECD Publishing, 2023.
5. Djanpeisova G. E., Xodjimuratova B. N. Matematik tasavvurlarni shakllantirish. – T.: Innovatsiya–Ziyo, 2020.
6. Esentaevna K. J. Matematika fanining boshqa fanlar bilan aloqasi hamda o'quvchilar bilimni shakllantirishdagi fundamental ahamiyati // Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi. – 2025. – T. 53. – № 1. – C. 247–250.
7. Furkatovna A. S. Matematika darslarida integrativ yondashuvning ta'lim rivojidadagi ahamiyati // Hamkor konferensiyalar. – 2025. – T. 1. – № 19. – C. 15–19.
8. Raxmonovna R. M. Algebraik ifodalarni soddalashtirishning ahamiyati // Introduction of New Innovative Technologies in Education of Pedagogy and Psychology. – 2025. – T. 2. – № 5. – C. 176–178.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2025. №11**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.